

OLDI-SOTDI
SHARTNOMA № 24245

6-iyun 2022-yil

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi rahbari D.Xodjayeva bundan buyon bir tomondan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida harakat qiluvchi, ikkinchi tomondan "MIX ART STONE" O/K rahbari A.Uraimov nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga xo'jalik mollari sotib olish uchun, «Buyurtmachi» esa olib kelingan mahsulot uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	Vodoemultiya qizil	Kg	6 174	3 450	21 300 300
2	Vodoemultiya sariq	Kg	12 330	2 980	36 743 400
3	Kraska metalla	Kg	800	29 800	23 840 000
4	Ohak	Kg	8 000	740	5 920 000
5	Razbavitel	Kg	170	19 900	3 383 000
Jami:					91 186 700

Tovarlarning shartnomaviy umumiyligi bahosi **91 186 700 so'm** (to'qson bir million bir yuz sakson olti ming yetti yuz) so'm.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. «Buyurtmachi» ko'rsatilgan xizmatning **30%** (foiz) miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan **70%** (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob - fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Mahsulotlar «Sotuvchi» ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan holda qo'shimcha belgilanadi.

IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng 10 kun muddat ichida «Buyurtmachi» ga shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlarni yetkazib berishi shart.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. «Sotuvchi» ning haqqi va majburiyatları:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rivoja qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi» ga xizmat ko'rsatish;
- Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan xizmatni to'xtatib qo'yish huquqiga ega;

- Tegishli darajada xizmat ko'rsatilgandan so'ng, sifatli bo'limgan xizmatni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan Shartnomaning umumiyligi so'mmasidan sifatli bo'limgan xizmat bahosini qaytarib berish. Sifatsiz ishlar haqida xizmat ko'rsatuvchi xabarnoma olgandan so'ng tomonlar Kyo'nta da sifatsiz mahsulotlarni tafkif bo'ylardan o'zaro dalolat qilishi.

- «Sotuvchi» yetkazib bergen mahsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, mal navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaq belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Buyurtmachi» ning huquq va majburiyatlari:

- «Buyurtmachi» Shartnomada belgilangan talablarga riosa qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish, tovari dalolatnoma tuzib ushbu Shartnomada va qonun hujjalarda belgilangan tarzda butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida mahsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatlari bo'limgan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 ish kuni ichida «Sotuvchini»ni ogohlantirish kerak.

- To'liq rasmiylashtirilmagan hamda mahsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnomada bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligidagi shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. «Sotuvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga tovar va mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 0,4% (foiz) miqdorida «Buyurtmachiga» ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50% (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. Shartnomada talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Buyurtmachi» tomonidan olingan tovar yoki mahsulot uchun to'lovlarni o'z vaqida amalgan oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,01% (foiz) miqdorida «Sotuvchi» ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50% (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki mahsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'tradagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra va yeng bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javob emaslar. Favqulotda tusdag'i holatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar shuningdek harbiy xarakatlari, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qolmaydigan boshqa har qanday holatlari tegishlidir.

7.2. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishlari shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha muddatlarini belgilashlari mumkin.

VIII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar avvalo taraflarning kelishuviga bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar «Buyurtmachi» joylashgan Iqtisodiy sud orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal qilinadi.

8.2. Shartnomada taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolikodeksiga hamda amaldagi qonun hujjalari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan binoan muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Taraflar shartnomada tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu shartnomadan so'ng, shartnomada bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladigan.

UZ TIZIMI ORQALI ERI BILAN TASDIQLANGAN, XUJOGAT KODI: CW28470486

9.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning ni olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdon shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatlari berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatlari olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki harqanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyclajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jaib qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridaq harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqlidir.

X. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

10.1. Ushbu shartnomasi 2022-yil 6-iyun 2022-yil 31-dekabrgacha 2 nusxada tuzildi.

10.2. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, hududiy g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

XI. QO'SHIMCHA SHARTLAR

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

"MIX ART STONE" Q/Q	"Farg'ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi"
Manzil: Bagdod tumani Shuroker kishlogi	Manzil: Farg'ona shahar Mustaqillik ko'chasi 3-uy
Tel/faks: 998 55 801 70	Tel/faks: +99890 232 70 07
X/r: 0208000105335477001	INN 200 145 479 OKOHX 90290
Agro bank ATB Bagdod filiali	X/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO: 00504	Markaziy bank Toshkent XKKM
STIR: 308138003	MFO: 00014
QQS to'lovchining kodid:	STIR: 201 122 919

Direktor



A.Uraimov

Rahbar



D.Xodjayeva

(QR uchun)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G’RISIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ RR5253083235

- 1. Loyiha turi:** Oldi-soti shartnomasi №24245-son
- 2. Loyihaning nomi:** Obodonlashtirish boshqarmasiga xo’jalik mollari sotib olish haqida. (“MIX ART STONE” O/K)

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Farg‘ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 6-iyun kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 6-iyun kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali qayta huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif: Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g’ri rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

X U L O S A

Loyiha amaldagi O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O’zbekiston Respublikasining “Xo’jalik yurtituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g’risida”gi Qonuni va qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Mirsoliyev.Z

2022-yil 7-iyun